

## SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY SARKARDALIK MAHORATI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI



ELSEVIER

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7626089>

**Sultonov Islom Azamat o'g'li**

Ўзбекистон Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Ijtimoiy gumanitar fanlar o'qitish metodikasi (tarix) ta'lim yo'nalishi 1 - bosqich  
magistri:  
E-mail : islomsultonov086@gmail.com



**Abstract:** Mazkur maqolada o'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temur shaxsining O'zbekiston va Jahon tarixshunosligida tutgan o'rni va ro'li haqida so'z boradi. Uning davlat hukumdori va ilm-fan homiysi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgani, shuningdek barcha davrlarda Temur shaxsining tarix fanida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Jahon tarixida Sohobqiron va uning tarixini o'rgangan ilmiy tatqiqotlar haqida ayrim ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 09-02-2023

Accepted: 09-02-2023

Published: 22-02-2023



**Abstract:** В данной статье рассматривается место и роль Амира Темура, основавшего в свое время великое царство, занимавшего достойное место в узбекской государственности и мировой истории, являвшегося великим полководцем, покровителем науки, в узбекской и мировой историографии. говорится о. Высказываются мнения о том, что он оставил неизгладимый след в истории как государственный правитель и покровитель науки, а также о значении личности Темура в исторической науке во все периоды. В мировой истории приведены некоторые сведения о Сахибкиране и научных исследованиях, изучавших его историю.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 09-02-2023

Accepted: 09-02-2023

Published: 22-02-2023



**Abstract:** This article discusses the place and role of Amir Temur, who once founded a great kingdom, occupied a worthy place in Uzbek statehood and world history, was a great commander, patron of science, in Uzbek and world historiography. was talking about. Opinions are expressed that he left an indelible mark on history as a state ruler and patron of science, as well as the importance of Temur's personality in historical science in all periods. Some information about Sahibkiran and scientific studies that studied its history are given in the world history.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 09-02-2023

Accepted: 09-02-2023

Published: 22-02-2023

## AMIR TEMURNING HARBIY SARKARDALIK MAHORATINING TARIXIY MANBAALARDA YORITILISHI

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, yuksalishlar bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini barqaror izga tushirish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o'rganish, ularga to'g'ri va xolis baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni

tiklash uchun keng yo'l ochildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor.

O'tgan davr mobaynida obyektiv tariximizni yaratish yo'lida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Qator muhim manbalar nashr etildi. Natijada tarixchilar uchun yirik tadqiqotlar yaratish imkoniyati vujudga keldi. Xususan, ajdodlarimiz tarixining noma'lum bo'lgan qirralari hamda insoniyat o'tmishida o'ziga xos o'rin egallagan tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganish uchun ham manbaviy asoslar yaratildi. Binobarin, o'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi tarixida hamda harbiy mahorat sohasida jahon tarixidan munosib o'rin egallagan Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o'lkamiz, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume'tirof etilgan davr sifatida ko'plab tadqiqotlarni taqozo etadi. Zero, Sohibqiron Amir Temur el-u ulusning taraqqiyoti, tinchligi va xavfsizligini o'z orzu-umidlarida mujassam etgan xalqimiz farzandi, "Temuriylar renessansi" asoschisidir.

Dunyoning turli mamlakatlarida taniqli davlat va jamoat arboblari, olimlar va adiblar o'z ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo'shgan munosib ulushini yuksak e'tirof etib keladi.

Xaqiqatan ham, Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Sohibqiron o'z poytaxti bo'lmish Samarqandni yer yuzining madaniy-me'moriy va ilmiy-ma'naviy markazlaridan biriga aylantirgan.

Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekani teran anglagan. Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan - Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondan - Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

Mamlakatimiz olimlari va xorijlik mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda e'tirof etilganidek, Amir Temur tarixda o'z davrining eng mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Sohibqiron buyuk davlat arbobi sifatida o'z maqsadlariga erishishda diplomatiyaning tinch yo'li va harbiy tadbirlarni mohirona qo'shib olib borgan.

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o'sha davrdan boshlab nafaqat qo'shni mamlakatlar va ularning podsholarini, balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham o'ziga jalb etib kelgan. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha, XIV asrning 70-

yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrğa kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar.

Sohibqiron ham, o‘z navbatida, ayniqsa, qudratli saltanat shakllangach, o‘sha davrning deyarli barcha yirik davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol diplomatik aloqa o‘rnatgan. Turli davlatlarga o‘z elchilarini yuborgan, shuningdek, uning huzuriga yo‘llangan xorij elchilarini qabul qilgan.

Amir Temur Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III (ayrim manbalarda – Ispaniya qiroli Genrix III), Fransiya hukmdori Sharl VI (ayrim manbalarda – Karl VI), Angliya qiroli Genrix IV saroyiga elchilar yuborgani, o‘z navbatida, ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir qator – jami 20 dan ortiq xorijiy davlat elchilarini o‘z poytaxti Samarqandda qabul qilgani haqida atroflicha bayon etilgan ko‘plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos tomonlaridan biri – u o‘zining barcha murojaatlarida, hatto qat’iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar xukmdorlarining qo‘pol shaklda, ba’zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohobqiron hamma vaqt o‘z fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini o‘sha davrlardan meros bo‘lib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas. Amir Temurning Fransiya qiroli Sharl VI ga yo‘llagan maktubida “Salom va tinchlik e’lon qilaman!”, degan so‘zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda Fransiyada Amir Temur shaxsiga bo‘lgan katta qiziqish haqida to‘xtalib o‘tsak. Fransuz sharqshunoslari Sohobqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgai ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarini, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo‘lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e’tibor beradilar.

Fransuz sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganish miqyosi keng bo‘lib, ular o‘sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha yoritadi. San’at va me’morchilik fransuz olimlari uchun alohida va doimiy qiziqish mavusidir. Temuriylar Uyg‘onish davriga bag‘ishlab ular yozgan asarlar, o‘tkazgan ilmiy anjumanlar va ko‘rgazmalar shundan dalolat beradi.

Sho‘rolar davrida Amir Temur to‘g‘risida iliq so‘z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya’ni 1987 yil 22 martda Parijda “Temuriylar davri tarixi va san’atini o‘rganish va fransuz-o‘zbek madaniy hamkorligi” uyushmasi tuzilgan. Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ‘ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati, san’ati, shuningdek, Buyuk ipak yo‘lining

muhim qismi, Sharq va G'arb madaniyatlarining chorrahasi bo'lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Buning yaqqol dalili sifatida ular Samarqand Shahrisabz, Buxoro-yu Hirot, Balxu Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me'morchilik durdonalarini misol qilib ko'rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko'rgazmalar o'tkazib turadi. Temuriylarning xaqiqiy ixlosmandi bo'lmish uyushma a'zolari fransuzlarni mashhur tarixiy "Samarqand yo'li" dan borishga, Amir Temur saltanati poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo bo'lishga, Sharq uyg'onish davri madaniyati va san'atidan zavqlanishga chorlaydi. O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlik rivojida uyushmaning munosib o'rni bor.

Shuni ham qayd etish kerakki, fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor Lyusyen Kerenning kitob va maqolalari alohida o'rin tutadi. 1961 yilda O'zbekistonga qilingan safar professorning hayotida burilish yasaydi. Shu paytdan boshlab u o'z hayotini Amir Temur shaxsi va temuriylar sulolasi tarixini o'rganishga bag'ishlagan.

Professor L.Keren o'z asarlarini yozishdan avval Amir Temur to'g'risida yozilgan Sharq va G'arb manbalarini chuqur tanqidiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning solnomalari, Rui Gonsales de Klavixo "Kundaliklar"i, mavjud tarixiy arxiv hujjatlari va yozma manbalar hamda taniqli fransuz sharqshunoslarining asarlari shular jumlasidandir.

Olim Sohibqiron haqida ulkan arxiv, tarixiy, ashyoviy va hayotiy ma'lumotlar to'plagan. Ana shu manba va asarlarni muqoyasa kilib, taqqoslab, ulardan har birining tarixiy dalillar nuqtai nazaridan ishonchli va xolis ekaniga baho bergan. Natijada Amir Temurning mukammal tarjimai holi va obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan, Sohibqiron faoliyatini teran va xolis baholagan.

Lyusyen Keren Amir Temur shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidalarsiz yondashadi. Ilmiy va tarixiy dalillar asosida mulohaza yuritadi va xulosalar chiqaradi. Olim Sohibqiron shaxsini tahlil qilar ekan, uning faqat harbiy iste'dodiga emas, balki maqsadini aniqlab, unga erishish borasidagi siyosiy zakovatiga, diplomatik mahoratiga va bunyodkorligiga ham tan beradi.

Professor L.Keren Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga bag'ishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning eng asosiy kitoblaridan biri "Temur yoxud Sohibqiron saltanati" ilk bor 1978 yilda bosilib chiqqan. Uning yirik asarlaridan yana biri "Temur davrida Samarqand yo'li" (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning "Ipak yo'li - muloqotlar yo'li" dasturi doirasida tayyorlangan.

Lyusyen Kerenning bu kitoblari uni dong'i ketgan temurshunos olimlar qatoriga qo'shgani bejiz emas. Ayniqsa, Sohibqironning Yevropadagi o'rni va



xizmatiga oid fikrlari diqqatni jalb etadi. Olim Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanini alohida qayd etgan.

Lyusyen Keren "Amir Temur" nomli ikki qism, olti pardali pyesa ham yaratgan. Qariyb o'ttiz besh yil davomida Amir Temur to'g'risida olib borgan tadqiqotlari xulosasi sifatida shunday deb yozadi: "Bir tomonda kattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turadi; bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi Temur bo'lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bog'lar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo'lib qolmoqda".

Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan, madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Shuningdek, temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Dunyo tarixshunosligida Amir Temur davri tadqiqiga oid nashrlar, "Temurshunoslik" ilmiy yo'nalishining shakllanishi, badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining yaratilishi ancha ilgari boshlangan.

Ma'lumki, sovet tarixshunosligida o'z davrining xos mafkuraviy yondashuviga qaramay, ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Shu o'rinda temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo'ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo'minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O'rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O'.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo'riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur.

Ta'kidlash joiz, dastlabki bibliografik ko'rsatkich mustaqillikkacha bo'lgan davrda tarixshunos olim B.V.Lunin tomonidan tuzilib adabiyotlar sohalar bo'yicha o'n ikki qismga ajratib tasniflangan edi. Shu bilan birga, ushbu bibliografik ko'rsatkichda mustabid sovet davridagi mafkuraviy tazyiq ta'sirida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar "Umumiy tarix" qismiga kiritilgan. Ammo bu holat tadqiqotning ilmiy ahamiyatini pasaytirmaydi, aksincha, olimning falsafiy mushohadasining nechog'lik teran ekanligidan dalolat beradi. Ushbu bibliografik ko'rsatkich tasnifi mustaqillik yillarida B.V.Lunin tomonidan ancha rivojlantirilib bir necha fundamental nashrlarda nafaqat keltirildi, balki olim Amir Temur davri asosiy manbalari hamda ilmiy adabiyotlarining tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili ham amalga oshirildi. Shuningdek, xorij tarixshunoslari, rus sharqshunos olimlari hamda sovet davrida tadqiqot olib borgan tarixchilarning ilmiy ishlari tadrijiy ravishda o'rganilib, ilk bor mavzuga oid tarixiy adabiyotlar

tarixshunoslikning yangicha talqinida o'z bahosini oldi. Ushbu tayyorlangan bibliografiya to'plami hozirga qadar tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Hozirga qadar respublikada mazkur mavzuga oid bir necha bibliografik nashrlar amalga oshirilgan. Chunonchi, 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Misrdagi elchixonasi xodimlari tomonidan Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo'llanmalar fihristi yaratildi. 1999-yilda esa akademik E.V.Rtveladze va akademik A.X.Saidovlar tomonidan tayyorlangan "Amir Temur dunyo fani ko'zglasida" nomli bibliografik nashrda xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlar tizimga solindi. Mualliflar jahon tarixshunosligida mustaqil "temurshunoslik" ilmiy yo'nalishi shakllanganini e'tirof etishdi. Shuningdek, "Amir Temur jahon tarixida" nomli nashrining "Amir Temur davri tarixnavisligi" bobidagi "Ilmiy izlanishlar" qismida O'zbekiston va xorij tadqiqotchilarining ishlari tahlil qilindi. Nashrda "Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko'nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o'tish tadriji sodir bo'ldi", degan xulosaga kelinishi tarixshunoslikdagi ilmiy burilishdir. 2003-yilda akademik B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, Ya.Muhammedov tomonidan ham temurshunoslik sohasida bir muncha tadqiqotlar olib borilib, "Amir Temur bibliografiyasi" nashrdan chiqdi. 2010-yilda O.Rahmatullayeva tomonidan tayyorlangan "Amir Temur saltanati tarixnavisligi" nomli bibliografik ko'rsatkichda faqat O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan adabiyotlar jamlanib sohalar bo'yicha tasniflandi. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo'yicha O'zbekistonda bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Aksariyat tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta'kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o'rganishda adabiyotlar taqchilligi qiynasa, bu davr tadqiqotchisiga esa adabiyotlarning ko'pligi va turli munosabat qiyinchilik tug'diradi. Aynan shu jihat ham bibliografik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Bibliografik ko'rsatkichda yurtimizda Amir Temur xotirasini abadiylashtirishga bag'ishlangan rasmiy ma'lumotlarni yig'ishda O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasining Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy reglamentlarning elektron to'plami dan foydalanildi.

Mazkur loyihada mavzuni yorituvchi yozma manbalar, monografiyalar, risolalar, dissertatsiya va avtoreferatlar ro'yxati, yubileylarga bag'ishlangan albomlar, tarixiy ma'lumotnoma va solnomalar, respublika va xalqaro konferensiya materiallari, o'quv qo'llanmalar, respublika va xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar jamlandi. Shuningdek, unda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, muzeylar va fondlardan o'rin olgan adabiyotlardan ham imkon qadar foydalanildi.

Jumladan, rus, ingliz, fransuz, turk, arab, fors tillarida nashr etilgan 6 mingga yaqin turli kitob va maqolalar nashrlari imkon qadar jamlanib, ma'lum bir tartibga solindi.

Kitobda yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar, monografiya va muhim kitob hamda risolalariga tavsif - izoh yozildi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bibliografiyada shartli ravishda, ko'lami jihatidan nihoyatda ko'pligi bois, davriy matbuot nashrlari olinmadi. Zero, davriy matbuot materiallari, istiqbolda, ushbu bibliografiyaning davomli nashrlarida o'z aksini topadi degan umiddamiz.

Bibliografik ko'rsatkichda barcha adabiyotlar, avvalo, nashr tili bo'yicha, mualliflarning familiya va ismi-shariflari kesimida alifbo tartibida joylashtirildi. Ushbu bibliografiyada adabiyot atamasi deganda monografiya, risola, dissertatsiya, avtoreferat, ilmiy-ommabop nashrlar, badiiy adabiyot va boshqalar ham nazarda tutiladi.

Bir ismning turli xil yozilishi, jumladan, Timur, Tamerlan, Timur, Temour, Tamerlan va h.k. atalishlar manba va ilmiy adabiyot nomlanishida qanday bo'lsa, shu holatda imkon qadar saqlab qoling. Ammo izohlarda "Temur" deb yozilishi to'g'ri deb topildi. Matbaa shaklidagi nashrlarda muallif ismi sharifi ko'rsatilmagan maqolalar bevosita sarlavhasi ham alifbo tartibida berilgan.

Temuriylar tarixi davlat muzeyida amalga oshirilayotgan mazkur tadqiqot davomlidir, zero yildan-yilga yangidan yangi adabiyotlar, tadqiqotlar qo'shib boraveradi. Bu hol o'z-o'zidan kelgusida bu bibliografiyaning davomli nashrlari yaratilishiga zamin bo'lib qoladi va loyiha kelajakda ilmiy guruhimiz tomonidan amalga oshirish rejalashtirilgan "Amir Temur Bibliografiyasi. Ikkinchi kitob" ishida yana davom ettiriladi. Zero, asarning ikkinchi nashrida Sharq va Yevropa xalqlari tillarida yozilgan ilmiy adabiyotlarni bibliografik ko'rsatkichda jamlash maqsad qilingan.

O'zbekiston yer yuzidagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni keng yo'lga qo'yimoqda, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish yo'lida izchillik va qat'iyat bilan odimlamoqda. Bu yo'lda bizga buyuk ajdodlar, ayniqsa, Amir Temur merosi doim hamrohdur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov, N. Oblamurodov, O'zbekiston Tarixi: Toshkent-2002
2. R. Xoliqulov, K. G'aniyev, M. Nasrullayev, O'zbekiston Tarixi: Samarqand - 2019
3. O'zbekiston Xalqlari Tarixi, Toshkent-1992.

4. O'quv uslubiy majmuasi, O'zbekiston Tarixi, Denov-2020  
April, 2022